



ISSN 2091-5187

СЕРВИС

№3

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ
ЖУРНАЛ

2025



СЕРВИС

ИЛМИЙ-АМАЛИЙ ЖУРНАЛ 2025 йил, 3-сони

Муассис: Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти

Ўзбекистон Матбуот ва ахборот агентлиги томонидан 2008 йил 31 декабрда
0561-рақам билан рўйхатга олинган.

ЎзР ОАК Риёсатининг 19.03.2017 й., 239/5-сонли қарори билан эътироф этилган

**Тахририят ижодий
жамоаси:**

Бош муҳаррир:

и.ф.д., проф. М.Э.Пўлатов

Бош муҳаррир

ўринбосари:

и.ф.н., проф. Д.Х.Асланова

Масъул котиб:

и.ф.д., проф. М.Қ.Пардаев

Муҳаррирлар:

и.ф.д., доцент Ф.А.Сафаров
PhD, доцент И.М.Пардаева
PhD, И.Ш.Эрназарова

Техник муҳаррир:

и.ф.н., проф. А.Н.Холиқулов

Корректор:

PhD, доц. С.А.Бабаназарова

Саҳифаловчи:

PhD Х.Н.Очилова

1 йилда 4 маротаба
чоп этилади.

**Ўзбекистон худудида
тарқатилади.**

Тахририят манзили:

140100, Самарқанд шаҳар,
Амир Темур кўчаси, 9-уй,

тел.: +998(66)233-28-38,
+998(97)913-74-40

факс: +998(366)231-12-53
эл.почта:

samisiservis@mail.ru

Тахририят кенгаши раиси:

М.Э.Пўлатов – Самарқанд иқтисодиёт ва сервис
институти ректори, и.ф.д., профессор

Тахририят кенгаши раиси ўринбосари:

Д.Х.Асланова – СамИСИ илмий ишлар ва
инновациялар бўйича проректори, и.ф.н., профессор

Тахрир кенгаши аъзолари:

Б.А.Бегалов – Ўзбекистон Республикаси Президенти
хузуридаги Статистика агентлиги директори, и.ф.д.,
профессор

М.Қ.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.К.Ғоибназаров – и.ф.д., профессор.

М.М.Мухаммедов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Д.Р.Зайналов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Муртазаев – ТДИУ СФ директори, и.ф.д., проф.

М.Р.Болтабаев – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Р.Х.Эргашев – ҚарМИИ профессори, и.ф.д.

И.С.Тўхлиев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

К.Б.Уразов – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Қ.Ж.Мирзаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.И.Исроилов – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Г.М.Шодиева – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Б.Абдукаримов – СамИСИ профессори, и.ф.н.

Р.Қобилов – Самарқанд вилояти ҳокими ўринбосари

С.Н.Тошназаров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

Р.Н.Нормахматов – СамИСИ профессори, т.ф.д.

А.Бектемиров – СамИСИ профессори, и.ф.д.

О.М.Пардаев – СамИСИ профессори, и.ф.д.

М.Т.Алимова – СамИСИ профессори, и.ф.д.

З.Дж. Адилова – ТДИУ профессори, и.ф.д.

Ш.О.Қувондиқов – СамИСИ профессори в.б., иқтисод
фанлари доктори

Л.Н.Халикова – СамИСИ профессори, DSc

Ф.А.Сафаров – СамИСИ доценти, DSc

А.М.Каримова – СамИСИ профессори в.б., DSc

И.Б.Маттиев – СамИСИ профессори, DSc

Феруз Нематуллаевич Абилов Қишлоқ ҳудудларида агросервис хизматларини кўрсатувчи инсон ресурслари фаолиятини такомиллаштириш	69
Нажмиддин Раҳматуллаевич Абдувоҳидов Хизмат кўрсатиш соҳасида иш ўринларини яратишда сохта иқтисодиёт ва уни баргараф этишнинг амалий йўналишлари	74
Мурод Нозирович Ибрагимов Перспектива развития услуг по внедрению стандартов GxP в Узбекистане	79
Рустам Алижонович Мусабоев Подходы к стратегическому планированию развития сферы бытовых услуг республики узбекистан	84
Ulug'bek Ziyadullayevich Narmurodov Pochta va kuryerlik xizmat ko'rsatishni rivojlantirish holati va tahlili (Samarqand viloyati misolida)	88
Тўлқин Исматулла ўғли Яхёев Қурилиш хизматлари кўрсатувчи корхоналар самарадорлигини баҳолашни ва таҳлил қилиш усуллари такомиллаштириш	94
Shohina Xujmaxmatovna Pirova Ichimlik suvi ta'minotini rivojlantirishda xorijiy mamlakatlar tajribasi	98
Nodira Abdullayevna Eshquvvatova Xizmat ko'rsatish korxonalarida iqtisodiy resurslardan foydalanish samaradorligini baholash	102
ТУРИЗМ ВА МЕҲМОНХОНА ХЎЖАЛИГИ	
Юлдуз Пирназаровна Урунбаева Ўзбекистонда музей туризмни бозорини ривожлантириш йўллари	107
Дилбар Хасановна Асланова, Маликабону Фуркатовна Раупова Совершенствование организационно-экономического механизма развития малого гостиничного бизнеса	113
Темурбек Бобурмирзо ўғли Саломов Зиёрат туризмида кўрсатиладиган хизматлар турларини ривожлантиришнинг стратегик йўналишлари ва тавсифи	116
Райхона Садриддиновна Амриддинова Ребрендинг как стратегический инструмент повышения конкурентоспособности гостиничных предприятий	121
Ikrom Abdurashitovich Shukurov Turizm sohasining barqaror rivojlantririshda ekonometrik modellashtirishning xorij tajribasi	124
Sarvar Adxamovich Abduxamidov Turistik mintaqalar: ularni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlari	130
Дониёр Журакулович Абдуразаков Туризм қишлоғи концепцияси ва унинг назарий-илмий тавсифлари таҳлили	135
Mekhruza Sukhrobjon qizi Vafokulova The role of family-owned businesses in the sustainable development of tourism in Samarkand	138
Diyora Narzieva Modern approaches to the development of cultural tourism	144
Sadoqat Quدراتовна Bultakova Xizmatlar sohasini diversifikatsiyalashning Yaponiya tajribasi	150

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2025-yil 15-maydagi “2025-2026-yillarda sayyohlar oqimini keskin ko‘paytirish va turistik xizmatlar ko‘lamini jadal kengaytirish orqali turizmning iqtisodiyotdagi o‘rni va ahamiyatini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi PF-87-sonli farmoni.
2. Borrego-Domínguez, S., Isla-Castillo, F., & Rodríguez-Fernández, M. (2022). Determinants of Tourism Demand in Spain: A European Perspective from 2000–2020. *Economies*, 10(11), 276.
3. Loh, L., Thomas, T., & Wang, Y. (2017). Sustainability Reporting and Firm Value: Evidence from Singapore-Listed Companies. *Sustainability*, 9(11), Article 2112. <https://doi.org/10.3390/su9112112>.
4. Halicioğlu, F. (2004). An ARDL Model of International Tourist Flows to Turkey. In *Global Business and Economics Review 2004 Anthology* (pp. 614–624).
5. Kitamura, Y., Ichisugi, Y., Karkour, S., & Itsubo, N. (2020). Carbon Footprint Evaluation Based on Tourist Consumption toward Sustainable Tourism in Japan. *Sustainability*, 12(6), 2219. <https://doi.org/10.3390/su12062219>.
6. Kitamura, Y., Ichisugi, Y., Karkour, S., & Itsubo, N. (2020). Carbon Footprint Evaluation Based on Tourist Consumption toward Sustainable Tourism in Japan. *Sustainability*, 12(6), 2219. <https://doi.org/10.3390/su12062219>.

<p>И.Шукуров</p> <p>Зарубежный опыт эконометрического моделирования в устойчивом развитии туристической отрасли</p>	<p>I.Shukurov</p> <p>Foreign Experience of Econometric Modeling in the Sustainable Development of the Tourism Sector</p>
<p>Аннотация. В данной научной статье представлены рекомендации по разработке стратегий повышения занятости в условиях устойчивого развития туристской отрасли региона, внедрению концепций «зелёного туризма», формированию механизмов адаптивного управления сезонностью и экономическими шоками, а также по увеличению доходов и сохранению экологического баланса посредством стратегий экотуризма. Кроме того, разработана методика поэтапной адаптации передового зарубежного опыта к местным условиям для обеспечения устойчивого развития туристской сферы региона.</p> <p>Ключевые слова: туризм, Модель коррекции ошибок, Индекс устойчивости туризма (ИУТ), экологический индикатор, валовой внутренний продукт (ВВП), международный спрос, местный спрос, инфраструктура, инвестиция.</p>	<p>Abstract. In this scientific article, recommendations are provided for developing strategies to increase employment within the sustainable development trends of the regional tourism sector, implementing green tourism strategies, creating mechanisms for adaptive management of seasonality and economic shocks, as well as enhancing income generation and maintaining ecological balance through ecotourism strategies. Furthermore, a methodology has been developed for the step-by-step adaptation of advanced international practices to local conditions in order to ensure the sustainable development of the regional tourism sector.</p> <p>Keywords: tourism, Error Correction Model (ECM), Tourism Sustainability Index (TSI), environmental indicator, Gross Domestic Product (GDP), international demand, domestic demand, infrastructure, investment.</p>

Sarvar Adxamovich Abduxamidov – SamISI, “Turizm” kafedrasini mudiri, dotsent, “Ipak yo‘li” turizm va madaniy meros xalqaro universiteti tadqiqotchisi

TURISTIK MINTAQALAR: ULARNI TASHKIL QILISH VA RIVOJLANTIRISHDA RAYONLASHTIRISH XUSUSIYATLARI

<p>Annotatsiya. Maqolada turistik mintaqalarni tashkil qilish va rivojlantirishda rayonlashtirish xususiyatlariga oid ilmiy tadqiqot natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari asosida ilmiy asoslangan xulosa va takliflar ishlab chiqilgan.</p> <p>Kalit so‘zlar: turizm, rayonlashtirish, hudud, mintaq, turizm industriyasi, turistik infratuzilma, turistik mintaq, ichki turizm, kiruvchi turizm, xalqaro turizm, turistik salohiyat.</p>

Kirish. Bugungi kunda O‘zbekiston zamonaviy turizm industriyasini rivojlantirishning barcha zaruriy manbalariga ega bo‘lib, Buyuk Ipak yo‘li ustida joylashgan qulay tabiiy-iqlim sharoitlariga, betakror tabiiy resurslariga, boy tarixiy, madaniy merosga, ichki va xalqaro turizmni jadal rivojlantirish uchun yuqori salohiyatga ega.

Biroq hozirgi vaqtda respublikamizning deyarli barcha hududlarida chiquvchi turistik oqimlari ichki va kiruvchi turistik oqimlardan yuqori ekanligi aniqlandi. Ichki va kiruvchi turizmining rivojlanishiga bir qator omillar to'sqinlik qilmoqda. Xususan, turistik yo'nalishlarni rivojlantirishga kompleks yondashuvning yetishmasligi, turizm infratuzilmasining yetarli darajada rivojlanmaganligi, hududiy turistik-rekreatsioon zonalar, klasterlar tuzilmasini shakllantirish va rivojlantirish bo'yicha aniq ilmiy asoslangan qoidalar hamda tavsiyalarning yetishmasligi va b..

Mazkur to'siqlarni bartaraf etishda mintaqaviy turizmni rivojlantirishning hozirgi tendensiyasi kirish turizmini oddiy rag'batlantirishdan milliy siyosat darajasida uni rejalashtirishning maqsadli strategiyalariga o'tishni talab qilmoqda. Shu tufayli O'zbekiston mintaqalarida turizmning mavjud salohiyatidan samarali foydalanish asosida turizmning ijtimoiy-iqtisodiy samaradorligini oshirishga qaratilgan, turistik mahsulotlarni diversifikatsiyalash va turistik klasterlarni shakllantirish mexanizmlarini ishlab chiqish kabilarni samarali tashkil etishda mamlakat hududlarini turistik mintaqalarga rayonlashtirish masalalarini tadqiq etish bugungi kunda dolzarb masalalardan hisoblanadi.

Mavzuga oid adabiyotlar tahlili. Mintaqalarni majmualiy rivojlantirish, hududlar va tarmoqlar o'rtasidagi mutanosiblik, zamonaviy boshqaruv usullari va mexanizmlari ko'plab xorijiy va mahalliy olimlarning ilmiy ishlarida ko'rib chiqilgan. Xususan, A.Y.Aleksandrova, S.A.Bogolyubova, N.V.Vasileva, R.I.Grinber, V.I.Danilova-Danilyan, G.V.Dvas, P.V.Drujinin, S.V.Kuznesova, T.V.Maleeva, S.N.Maksimova, A.D.Nekipelova, V.M.Razumovska, V.Ye.Roxchin, V.B.Fraymovich, A.D.Ursula kabi olimlar asarlarida tadqiq qilingan. R.Bennet, A.Veber, A.Granberg, R.Harris, V.Kristaller, O.Kuznesov, M.Porter va boshqalarning ishlarida hududlarning ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishi, erkin iqtisodiy zonalar, klasterlar, diffuziya orqali rivojlanish, o'sish nuqtalari kabi masalalariga e'tibor berilgan¹. L.V.Kovyneva, Y.A.Voinova, E.A.Jandyugazova, M.M.Orjonikidze, S.A.Sevastyanova² lar tomonidan mintaqalarda turizmni rivojlantirish bo'yicha bir qator ilmiy tadqiqotlar olib borilgan.

O'zbekistonda mintaqaviy iqtisodiyot, mintaqaviy turizm, turistik zonalar nazariyasi va tushunchasini keng qamrovli tadqiq etgan olimlar Q.X.Abduraxmanov, M.Q.Pardayev, I.S.Tuxliyev, T.M.Axmedov, A.M. Sadikov, A.S.Soliyev, B.Sh.Safarov, M.T.Alimova, A.Sh.Berdimurodovlar hisoblanadi³. Jumladan A.S.Soliyev tamonidan O'zbekiston Respublikasi hududlarini rayonlashtirishda mintaqaviy xususiyatlar asos sifatida chuqur o'rganilib mintaqani oltita iqtisodiy rayon sifatida ajratgan.

Tadqiqot metodologiyasi. Ushbu tadqiqotda O'zbekiston hududlarini turistik mintaqalarga rayonlashtirish masalasi kompleks yondashuv asosida o'rganildi. Metodologik asos sifatida iqtisodiy-ijtimoiy va geografik, tizimli va qiyosiy tahlil usullari qo'llanildi.

Tahlil va natijalar. O'zbekistonning ko'plab mintaqalari uchun iqtisodiyotni diversifikatsiya qilishning jozibador yo'nalishlaridan biri bu turizm sohasi bo'lib, u mahalliy iqtisodiyotning yuqori daromadli va dinamik rivojlanayotgan sohalaridan biri hisoblanadi. Turizm sohasi ko'p qirrali xususiyatiga ega bo'lib, mintaqa iqtisodiyotining deyarli barcha sohalarini va mahalliy aholining turmush darajasi bilan o'zaro bog'langan. Binobarin turizm sohasining rivojlanishi mintaqadagi ijtimoiy-iqtisodiy o'sishga yaqqol multiplikativ ta'sir ko'rsatadi.

Turist sayohat maqsadini tanlar ekan, u turli mintaqalar va ularda taklif etilayotgan xizmat turlarini o'zaro taqqoslaydi hamda o'zi uchun eng ma'qul kelganini tanlaydi. Turistlar tomonidan tanlangan va harid qilingan turizm mahsuloti ana shu turistik mintaqada taqdim etilayotgan

¹ Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М,2004,-495б.; Harris R. Models of Regional Growth: Past,-President and Future. Glasgow. 2008. Кузнецова О. Экономическая развитие регионов. М, 2016,-214б. М. Портер Конкурентная стратегия. М, 2016,-114б.


² Войнова Е.А. Стратегическое планирование развитие рекреационного туризма в регионе; Автореферат диссертации. - М,2019, -28с, Джанджугазова Е.А. Маркетинг туристических территорий. -М, ЮНИТИ, 2018, -232с., Ковынева Л.В. Региональный туризм: М. Инфра-М, 2005, -248с., Орджоникидзе М.М. Интеграция и конкуренция и в управлении туризмом в регионе. Экономика и управление 2018, №44. 36с. Севастьянова С.А. Региональное планирование туризма. М. Финансы и статистика, 2017,-232с.

³ Абдурахманов К.Х. и др. Региональная экономика и управления. Ташкент, -2007, -750с, Т.М. Ахмедов и др. Региональная экономика. -М,-2006, -156с, А.М. Содиков. Основы региональной развития. Ташкент, -2005,-223с. Солиев А.С. ва бошқалар. Минтақавий иқтисодий. Ўқув қўлланма. Тошкент: ЎЗМУ 2003 й.: Иқтисодий география: назария, методика ва амалиёт. «Камалак нашриёти», Тошкент, 2013.-226 б.

xizmatlar majmuasidan iborat bo‘ladi.

Turistik xizmat turlarini taklif qilayotgan mintaqa aniq belgilab qo‘yilgan ma‘muriy yoki geografik chegaralarga ega bo‘lishi shart emas. Bu holda u ma‘lum hudud, turistik markaz yoki turistik destinatsiya ko‘rinishida ham bo‘lishi mumkin. Shu bilan birga, bunday mintaqa turistlar o‘z sayohat maqsadi sifatida tanlaydigan muayyan viloyat, butun mamlakat yoki hatto mamlakatlar guruhini ham o‘z ichiga olishi mumkin.


Jahon turizm statistikasi ma‘lumotlari va Butunjahon turizm tashkiloti (UNWTO) tavsiyasi asosida dunyo mamlakatlari quyidagi oltita yirik turistik makro mintaqaga ajratilgan (1-rasm):



1-rasm. UNWTO turistik mintaqalari¹

UNWTO tomonidan belgilangan bu turistik mintaqalar xalqaro turizm rivojlanishini tahlil qilish va mintaqaviy strategik rejalashtirish uchun muhim ahamiyatga ega. Har bir mintaqaning o‘ziga xosligi, turistik salohiyati va rivojlanish imkoniyatlari mavjud bo‘lib, bu jahon turizmining umumiy dinamikasiga ta’sir qiladi.

Turistik mintaqa o‘zining rivojlanish sikliga ega bo‘lib, u quyidagi to‘rt bosqichdan iborat (2-rasm):



2-rasm. Turistik mintaqaning rivojlanish sikli²

Turistik mintaqaning rivojlanishining dastlabki bosqichida turistlar soni nisbatan kam bo‘lib, ular asosan yangi va notanish hududlarni kashf etish va o‘rganishga intiladi. Bu bosqichda mahalliy aholi bilan aloqalar cheklangan, turizm infratuzilmasi deyarli mavjud emas hamda atrof-muhitga ta’sir minimal darajada bo‘ladi.

Ikkinchi bosqichda esa turistlar oqimi keskin oshadi. Mintaqada turizmni qo‘llab-quvvatlovchi infratuzilma — mehmonxonalar, restoranlar, transport vositalari uchun to‘xtash joylari va boshqa qulayliklar barpo etiladi. Turizm mahalliy iqtisodiyotning muhim tarmoqlaridan

¹ UNWTO ma‘lumotlari asosida shakllantirildi

² Бессонова В.Б. Туристский регион: содержание и границы понятия (на примере анализа туристской учебной литературы). Туризм и культурное наследие. Межвузовский сборник научных трудов. 2006. Выпуск 3. С.287-295. асосида муаллиф томонидан шакллантирилди

biriga aylanib, mahalliy aholi bilan turistlar o‘rtasidagi o‘zaro aloqalar tobora mustahkamlanadi.

Turistik mintaqa rivojlanish siklining uchinchi bosqichida hududda turistik faoliyat yuqori darajada rivojlanib, tashrif buyuruvchilar soni maksimal ko‘rsatkichga yetadi. Bu holat esa hududda ekologik va ijtimoiy muammolarni keltirib chiqarishi mumkin. Jumladan, atrof-muhitning buzilishi, joylashuv infratuzilmasining ortiqcha yuklanishi hamda mahalliy aholi turmush tarziga salbiy ta‘sir ko‘rsatishi ehtimoli yuqori. Natijada, mazkur jarayon turistik salohiyatning pasayishiga olib kelishi mumkin.

Turistik mintaqa rivojlanishining keyingi — to‘rtinchi bosqichi esa ikki yo‘nalishda kechishi mumkin. Birinchi yo‘nalishda, agar ekologik va ijtimoiy muammolar yetarli darajada hal etilmasa, turistik qiziqish susayadi va iqtisodiy tanazzul yuzaga keladi. Ikkinchi yo‘nalishda esa, zamonaviy rekreatsion texnologiyalar joriy etilib, ekologik barqaror va kreativ turizm shakllari rivojlansa, hudud tiklanish imkoniyatiga ega bo‘lib, turistik salohiyati yanada oshishi mumkin.

Butunjahon turizm tashkiloti turistik mintaqani dam olish va xordiq chiqarish, ta‘lim olish hamda sog‘liqni tiklash uchun zarur bo‘lgan maxsus inshootlar, qurilmalar va xizmatlar to‘plami joylashgan hudud sifatida ta‘riflaydi. Ushbu ta‘rifdan xulosa qilish mumkinki, turistik mintaqa turistlar tashrif buyurishi uchun zarur shart-sharoitlarga ega bo‘lgan hududiy birlik hisoblanadi.

Turistik mintaqa, makon sifatida, turist yoki turistlar guruhi tomonidan tanlab olingan hamda turistik xizmatlar ishlab chiqaruvchi muayyan hududda joylashgan jozibador va ko‘ngilochar obyektlar, infratuzilma hamda xizmatlar majmuasini o‘z ichiga oladi. Shunday qilib, turistik mintaqa — bu ham turistik mahsulot, ham sayyohlik makonidir.

Xorijiy va mahalliy olimlar hamda tadqiqotchilar ishlarini o‘rganish natijasida ma‘lum bo‘ldiki, hududlarni turistik rayonlashtirish jarayonida tashrif buyuruvchilarning madaniy dam olishi, xordiq chiqarishi va sog‘lomlashtirishi uchun mo‘ljallangan hududlardan atrof-muhit va tabiatga minimal ta‘sir ko‘rsatgan holda foydalanish talab etiladi.

Rayonlashtirish — bu ma‘lum bir hududni (ma‘muriy, iqtisodiy, turizm va boshqa jihatlardan kelib chiqib) mintaqalarga ajratish yoki birlashtirish jarayoni bo‘lib, ularning har biri o‘ziga xos geografik, iqtisodiy va tarixiy xususiyatlarga ega bo‘ladi. Hududlarni ma‘lum mintaqalarga rayonlashtirish muhim iqtisodiy-geografik usul hisoblanadi va mamlakatning ijtimoiy-iqtisodiy muammolari hamda mahalliy turizm salohiyati haqida tasavvur hosil qilish imkonini beradi. Bunday mintaqalar bir-biridan mavjud imkoniyatlari va turizmni rivojlantirish yo‘nalishlari bilan farqlanadi.

Bugungi kunda hududlarni turistik mintaqalar bo‘yicha rayonlashtirish turizm sohasidagi dolzarb masalalardan biri hisoblanadi. Chunki O‘zbekiston hududlarini rivojlantirishning kreativ strategiyasini amalga oshirishda turizm turlari bo‘yicha rayonlashtirish samarali vosita sifatida xizmat qiladi.

Turistik rayonlashtirish jarayoni turizm sohasini rivojlantirishning ilmiy prinsiplarini ishlab chiqish va ularni takomillashtirishga, yangi turistik-rekreatsion resurslarni aniqlashga, rivojlanmagan hududlarda turizmni shakllantirish uchun zarur shart-sharoitlarni belgilashga yordam beradi. Shuningdek, u hududlarning turistik ixtisoslashuvini aniqlash, turizmni rivojlantirish bo‘yicha to‘plangan tajribani bir mintaqadan boshqasiga o‘tkazish imkoniyatini ham yaratadi.

Turizm sohasini rayonlashtirishni faqatgina bitta iqtisodiyot tarmog‘i doirasida ko‘rib chiqish mumkin emas. Bu jarayonda turizm bilan boshqa iqtisodiy va ijtimoiy faoliyat turlari, shuningdek, hudud infratuzilmasi o‘rtasidagi bevosita va bilvosita aloqalarni aniqlash muhim ahamiyatga ega. Ushbu aloqalarni o‘rganish hududlarning samarali va barqaror rivojlanishini ta‘minlaydi.

Turizm sohasini rivojlantirish va rayonlashtirishning asosiy xususiyatlariga quyidagilar kiradi:

1. Turizm qishloq xo‘jaligi, sanoat, transport, sog‘liqni saqlash va madaniyat sohalari bilan yaqin bog‘liqdir. Turistik faoliyat ushbu tarmoqlardan zaruriy darajada foydalanadi va shu bilan birga ularning rivojlanishini rag‘batlantiradi. Masalan, qishloq xo‘jaligi mahalliy oziq-ovqat mahsulotlari bilan restoran va mehmonxonalarni ta‘minlaydi, sanoat esa turizm uchun zarur jihozlar, suvenirlar va infratuzilmaviy obyektlarni yaratishda ishtirok etadi.

2. Hudud infratuzilmasi turizmning asosiy poydevori hisoblanadi. Transport tarmog‘i,

aloqa vositalari, energetika ta’minoti, ichimlik suvi va sanitariya xizmatlari sifati hududning turistik jozibadorligini belgilaydi. Masalan, samarali transport aloqalari turistlar oqimini ko’paytirsa, yuqori sifatli mehmonxonalar va xizmat obyektlari hududning raqobatbardoshligini oshiradi. Shu bois, infratuzilmani modernizatsiya qilish va uning turizm bilan integratsiyasini ta’minlash strategik vazifa sanaladi.

3. Turizm mahalliy aholi madaniyati va an’anaviy faoliyati bilan uzviy bog‘liq. Milliy bayramlar, hunarmandchilik ko‘rgazmalari va an’anaviy taomlar turistlar uchun qo‘shimcha qiziqish uyg‘otadi. Shu bilan birga, mahalliy aholining ijtimoiy ta’minoti yaxshilanishi turizmning ijtimoiy barqarorligiga zamin yaratadi.

4. Turizm hududlarda kichik biznes, oziq-ovqat xizmatlari, savdo va hunarmandchilik tarmoqlarini rivojlantiradi. Shuningdek, turizmdan tushadigan daromadlar infratuzilmani yaxshilash, yangi ish o‘rinlari yaratish va aholi turmush sifatini oshirishga xizmat qiladi.

Xulosa va takliflar. Umuman olganda, turizmni rayonlashtirishni kompleks yondashuv asosida tashkil etish zarur. Buning uchun turizmning boshqa iqtisodiy tarmoqlar va ijtimoiy faoliyat turlari bilan o‘zaro ta’sirini chuqur tahlil qilish, hudud infratuzilmasini takomillashtirish strategiyalarini ishlab chiqish hamda uning turizm sohasiga ta’sirini baholash talab etiladi. Bunday kompleks yondashuv nafaqat turizm sohasini samarali rivojlantirishga, balki hududlarning barqaror iqtisodiy o‘shishiga ham xizmat qiladi.

Turistik mintaqalarni tashkil qilish, rivojlantirish va rayonlashtirish jarayonida quyidagilarga alohida e’tibor qaratish muhim:

turizmni rayonlashtirish faqat turistik xizmatlar doirasida emas, balki iqtisodiy, ijtimoiy, madaniy va ekologik jihatlarni ham qamrab olishi lozim;

har bir hududning geografik joylashuvi, tabiiy resurslari, madaniy merosi va infratuzilmasi kompleks tarzda tahlil qilinishi zarur;

turistik mintaqalarda transport, aloqa, energetika, suv ta’minoti va sanitariya xizmatlarini modernizatsiya qilish, ularning turizm bilan uzviy integratsiyasini ta’minlash lozim;

yangi turistik markazlar yaratilishida ekoturizm va kreativ turizm yo‘nalishlariga e’tibor qaratilishi tavsiya etiladi;

turizmning qishloq xo‘jaligi, sanoat, savdo, sog‘liqni saqlash va madaniyat tarmoqlari bilan bog‘liqligini hisobga olish zarur.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Tuxliyev I.S., Abduxamidov S.A. Turizm: nazariya va amaliyot. Darslik.-T.: “Fan va texnologiyalar nashriyot-matbaa uyi”, -2021 й. -424 bet.
2. Абдурахманов К.Х. и др. Региональная экономика и управления. Ташкент, -2007, -750 с.
3. Abduhamidov S.A. “Xalqaro turizm” O‘quv qo‘llanma. S.: Stap-sel” nashriyoti, -2025 y. -466 b.
4. Abduhamidov S.A. “Turizm resurslari”. O‘quv qo‘llanma. -S.: “Step Sell” nashriyoti, -2025 y. - 348 b.
5. Ахмедов Т.М. и др. Региональная экономика. –М,-2006, -156 с.
6. Бессонова В.Б. Туристский регион: содержание и границы понятия (на примере анализа туристской учебной литературы). Туризм и культурное наследие. Межвузовский сборник научных трудов. 2006. Выпуск 3. С.287-295.
7. Войнова Е.А. Стратегическое планирование развитие рекреационного туризма в регионе; Авторе-ферат диссертации. -М, 2019, -28 с.
8. Гранберг А.Г. Основы региональной экономики. М,2004,-495б.
9. Джанджугазова Е.А. Маркетинг туристических территорий. –М, ЮНИТИ, 2018, -232с.
10. Ковынева Л.В. Региональный туризм: М. Инфра-М, 2005, -248с.,
11. Кузнецова О. Экономическая развитие регионов. М, 2016,-214б.
12. Орджоникидзе М.М. Интеграция и конкуренция и в управлении туризмом в регионе. Экономика и управление 2018, №44. 3бс.
13. Портер М. Конкурентная стратегия. М, 2016,-114б.
14. Севастьянова С.А. Региональное планирование туризма. М. Финансы и статистика, 2017,-232с.
15. Содиқов А.М. Основы региональной развития. Ташкент, -2005,-223с.

16. Soliyev A.S. va boshqalar. Mintaqaviy iqtisodiyot. O‘quv qo‘llanma. Toshkent: O‘zMU 2003 y.: Iqtisodiy geografiya: nazariya, metodika va amaliyot. «Kamalak nashriyoti», Toshkent, 2013.- 226 b.

<p>С.Абдухамидов</p> <p>Туристические регионы: особенности районирования при их организации и развитии</p> <p>Аннотация. В статье приведены результаты научного исследования об особенностях районирования при организации и развитии туристических регионов. На основе результатов исследования разработаны научно обоснованные выводы и предложения.</p> <p>Ключевые слова: туризм, районирование, территория, регион, индустрия туризма, туристическая инфраструктура, туристический регион, внутренний туризм, въездной туризм, международный туризм, туристический потенциал.</p>	<p>S.Abdusamidov</p> <p>Tourist Regions: Features of Zoning in Their Organization and Development</p> <p>Abstract. The article presents the results of a scientific study on the features of zoning in the organization and development of tourist regions. Based on the research results, scientifically grounded conclusions and proposals have been developed.</p> <p>Keywords: tourism, zoning, territory, region, tourism industry, tourism infrastructure, tourist region, domestic tourism, inbound tourism, international tourism, tourism potential.</p>
--	---

Дониёр Журакулович Абдуразаков – “Ипак йўли” туризм ва маданий мерос халқаро университети докторанти

ТУРИЗМ ҚИШЛОҒИ КОНЦЕПЦИЯСИ ВА УНИНГ НАЗАРИЙ-ИЛМИЙ ТАВСИФЛАРИ ТАҲЛИЛИ

<p>Аннотация. Мақолада туризм қишлоғи тушунчаси ҳақида сўз бориб, унинг илмий-назарий асослари ва тавсифини очиб беришга бағишланган. Унда туризм қишлоғи тушунчасига халқаро ва миллий ёндошувлар таҳлил этилди ҳамда муаллиф томонидан илмий ва ҳуқуқий атама сифатида таърифи тақлиф қилинди.</p> <p>Калит сўзлар: туризм, қишлоқ туризми, туризм қишлоғи, туризмни бошқариш, туризм ресурслари, туристик жой, туризм маҳалласи.</p>

Кириш. Туризм қишлоғи ёки туризм маҳалласи концепцияси Ўзбекистон туризми учун нисбатан янги тушунча ва амалиёт бўлиб, унинг пайдо бўлиши 2020 йилларга бориб тақалади. Республикамизда 2017 йилдан кейин бошланган ислохотлар натижасида туризмда ҳам туб бурилишлар юз берди ва қишлоқ туризмга алоҳида эътибор қаратилиб "Туризм маҳалласи", "Туризм қишлоғи" ва "Туризм овули" мақомини бериш тартиби тўғрисидаги низом қабул қилинди. Гарчи, ундан аввал ҳам туризм билан шуғулланувчи қишлоқлар мавжуд бўлган бўлсада унинг илмий асослари ҳақида чуқур тадқиқотлар олиб борилмаган ва туризм қишлоғи тушунчасининг илмий таърифи ишлаб чиқилмаган. Шу сабабли, бу тушунчанинг илмий асослари атрофлича тадқиқ этилиши хануз долзарблигича қолмоқда.

Мавзуга оид адабиётлар таҳлили. Юртимизда А.Н. Норчаев, М.Қ. Пардаев, Б.Н. Навруз-Зода, Б.Б. Валиев, М.Т. Алимова, Б.Ш. Сафаров, Н.Х. Жумаев, А.А. Эштаев, Н.Е. Ибодуллаев, А.Ф. Азизтоева, А.Т. Мирзаев, Ф.Б. Маткаримов каби олимлар ҳудудларда ва қишлоқларда туризмни ривожлантиришнинг илмий-назарий асосларига кўпроқ урғу беришган. М.Р. Болтабаев, И.С. Тухлиев, В.Ш. Шарапов, С.А. Абдухамидов, Н. Ибодуллаев каби олимлар эса туристик ресурслар мавзусини тадқиқ этишган бўлса, М. Алимова, Б.Н. Навруз-Зода каби бир қатор олимлар ҳудудларнинг туристик салоҳиятини таҳлил қилиш ва туристик ҳудудлаштиришга оид кўплаб қимматли фикрларни айтиб ўтишган. Бироқ, тадқиқотларимиз жараёнида туризм қишлоғи тушунчасига алоҳида категория сифатида берилган таъриф топилмади.

Тадқиқот меодологияси. Мазкур мақолада манбааларни таҳлил қилишда анализ ва синтез усуллардан фойдаланилган. Турли тадқиқотчиларнинг қарашлари тизимли ва умумлаштириш услублари воситасида ўрганилиб соҳага оид муаммолар аниқланган. Шунингдек, шахсий кузатиш ва мантиқий фикрлаш усуллари ёрдамида муаллифнинг бир

ISSN 2091-5187

☞ “СЕРВИС” ☞

Журнал Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти таҳририят
бўлимида нашрга тайёрланди.

10.09.2025 йилда теришга берилди. 26.09.2025 йилда босишга рухсат этилди.
Офсет босма қоғози. Қоғоз бичими 60x84 $\frac{1}{8}$. “Times” гарнитураси. Офсет
босма усули. Шартли босма табағи 14,6. Ҳисоб-нашриёт
табағи 13,75. Адади 100 нусха. Буюртма № 0054А/25

Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институтининг
матбаа бўлимида чоп этилди.
Лицензия № 025316.
Реестр № Х-119112.

Манзил: Самарқанд шаҳри, Шохрух кўчаси, 60-уй.

© Самарқанд иқтисодиёт ва сервис институти, 2025.